

**TA'LIM SAMARADORLIGIDA AJDODLAR TA'LIMOTI**

Tojimamatov Jamshidbek Iqboljon o'g'li

FarDU Psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: ta'limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlar olib boorish yaxshi samara beradi. Interfaol metodlardan foydalanish o'quvchi va talabalarda mustaqil, ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni asoslash, muammoli vaziyatlar yuzasidan oqilona qarorlarni qabul qilish, kichik guruhlarda o'zaro hamkorlikda ta'lim olish ko'nikma va malakalarni rivojlantiirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, aqliy taraqqiyot, metod, tarbiya jarayoni, muammoli vaziyat, ijodiy tafakkur, uzluksiz ta'lim, sifatli ta'lim, shaxs iqtidori.

Zamonaviy sharoitda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida yangi g'oyalarga asoslangan innovatsiyalar va ular boradagi ilg'or xorij tajribalarini samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning respublika uzluksiz ta'lim tizimi amaliyotiga samarali tatbiq etilayotgan ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashga doir tajribalari orqasida ta'lim oluvchilarning o'quv faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol metodlar alohida o'rin tutadi. Ta'lim, qolaversa, tarbiya jarayonida ham interfaol metodlardan foydalanish o'quvchi va talabalarda mustaqil, ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni asoslash, muammoli vaziyatlar yuzasidan oqilona qarorlarni qabul qilish, kichik guruhlarda o'zaro hamkorlikda ta'lim olish ko'nikma va malakalarni rivojlantiirishga yordam beradi.

Abu Ali ibn Sino inson aqli haqidagi hikmatlarida «Ilm—narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir». «Bilim deb, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir» deydi¹.

O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T.: O'qituvchi. 1999. 2j. 137-b.



Bola jamiyatning a'zosi mukammal shaxs sifatida muayyan ijtimoiy muhitda kamol topar ekan uning butun bilish jarayolari, o'ziga xos xususiyatlari va ruhiy holatlari, ongi ham rivojlanadi.

Ibn Sino «Hayy ibn Yaqzon» qissasida kishi fe'l-atvorini, tabiatni chuqurroq tushunish uchun ilmi mantiqni bilishga da'vat qiladi. Chunki bu ilm kishi didini o'stiradi, fikr doirasini kengaytiradi. Ibn Sino bu haqda shunday deydi: «Farosat ilmi foydasi naqd ilmlardandir. Bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning pinhoniy fe'l-atvorini bildiradi. Farosat ilmidan bahramand bo'lsang, juda o'tkir bo'lib ketasan»².

Hozirda keng tarqalgan masofaviy ta'lim bilim olishning eng qulay shakliga aylanishi barobarida, aholining keng qatlamlari uchun hatto eng elitar oliy o'quv yurtlari eshiklarining ochilishiga zamin yaratadi. Sodda qilib aytganda, ma'lumotlilik ko'p darajada insonning hohish-irodasiga bog'liq bo'lib qoladi.

Ibn Sino o'z ta'limoti orqali o'rta asr psixologiyasining aqliy ob'ektlarini moddiy narsalar sifatida gavdalantiradi. Garchi bu asar aql, ilm-fan, ma'rifat haqida hikoya qilsa-da, lekin olimning fanga, uni egallashga intilishlarini ham tasvirlovchi qissa hamdir.

Aql ilmining makoni, muqaddas joy, buning ma'nosi haqiqiy fan, ya'ni aqlda yolg'onchilik, tubanlik, yomonlik kabilar bo'lmasligi kerak. qissadagi oqib turgan chashma – mantiq ilmi, unda cho'milish esa mantiqni egallashir. Mantiq ilmini egallasa, kishi Bahri muhitda cho'kmaydi.

Ibn Sino qadimgi falsafadagi «nazariy aql» bilan «amaliy aql» haqida ham to'xtalib o'tadi: «...o'ngda o'tirib kuzatuvchisi buyruq beruvchilardan bo'lib, yozdirish ishi shuning qo'lida. Chapda o'tirib kuzatuvchisi buyruq beruvchilardan bo'lib, yozish ishi uning qo'lida». Bunda kishining rost yolg'onga rag'bat, o'ylab-o'ylamay ish qilish kayfiyati, hissi qabul qilgan narsalarni aql bilan ifodalash xususiyatlari nazarda tutiladi. Chunki his yordami bilan ma'lum bo'lgan narsalar aqlga borib yetadi.

Ibn Sino SHarq falsafasidagi «faol aql»ni hamma narsalarning asosi, boshlang'ichi deb ta'riflaydi.

² Ibn Sino. Falsafiy qissalar. T.: O'qituvchi. 1963. 32-b.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanobxalqimiz bilan birga quramiz”. Tohkent. Ozbekiston. 2017.
2. Ibn Sino. Falsafiy qissalar. T.: O’qituvchi. 1963. 32-b.
3. V.Karimova. Ijtimoiy psixologiya.T. «Fan va texnologiya»2012 y.
4. Ibrokhimjonovna T. N. Personal education as a main basis of society's development //academica globe: inderscience research. – 2021. – t. 2. – №. 03. – s. 1-2.
5. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna. "Важные аспекты упражнений в умственной деятельности психологическая интерпретация." International journal of discourse on innovation, integration and education 1.5 (2020): 97-99.
6. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna// The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences.January 10 th,2022.69-70